



Tadqiqot.uz

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**SOHA LINGVISTIKASI: TILSHUNOSLIK
VA TIBBIYOT INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI HAMDA
ISTIQBOLLARI**

**10-NOYABR
2021**

BUXORO, UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SOHA LINGVISTIKASI:
TILSHUNOSLIK VA TIBBIYOT
INTEGRATSIYASINING
MUAMMOLARI, YECHIMLARI
HAMDA ISTIQBOLLARI
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari

Buxoro, 10-noyabr, 2021-yil

© Tadqiqot.uz

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

BUKHARA STATE UNIVERSITY

**LINGUISTICS OF DIFFERENT
FIELDS:
PROBLEMS, SOLUTIONS AND
PROSPECTS OF LINGUISTICS
AND MEDICAL INTEGRATION**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

Bukhara, November 10, 2021

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО
СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

**ОТРАСЛЕВАЯ ЛИНГВИСТИКА:
ЗАДАЧИ, РЕШЕНИЯ И
ПЕРСПЕКТИВЫ
ЛИНГВИСТИКИ И
МЕДИЦИНСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ**

Бухара, 10 ноября 2021 г.

© Tadqiqot.uz

“Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Buxoro: Tadqiqot.uz, 2021.

Buxoro davlat universiteti O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi, O`zbekiston Respublikasi tadqiqot.uz. markazi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti bilan hamkorlikda “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o`tkazdi.

O`zbek, rus, ingliz tillaridagi mazkur konferensiya materiallarida tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g`oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari; o`zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat; tibbiyot ta`limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi; tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi; amaliy filologiyani rivojlantirish kabi mavzular doirasida mulohaza yuritilgan.

Mas`ul muharrir

**filologiya fanlari doktori,
professor Abuzalova M.Q.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Nazarova S.A.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent G`aybullayeva N.I.**

**tibbiyot fanlari doktori (PhD),
dotsent Ixtiyarova G.A.**

**To`plovchi va nashrga
tayyorlovchi**

**pedagogika fanlari nomzodi,
professor Yuldasheva D.N.**

Mazkur to`plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma`lumotlar hamda bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o`zlari mas`uldirlar.

© Buxoro, Tadqiqot.uz, 2021

the philosophical point of view the word which pronounced by mankind has a powerful reaction to the perception of once mind.

Conclusion. In one word linguotherapy is the method which helps in treatment both sick people and their spirit. It also helps to overcome difficulties in educational system, however, this sphere is not researched both linguists and medical scientists so clearly. Our task in future will be the followings: - to analyze the linguistic phenomena of word psychological influence; -to connect in one system all the words of linguotherapy colored; -to make experiments of linguotherapy to the psychological depressed patients. We come to conclusion that good communication and learning foreign language affects the psychological system making emotional senses in our mind. Mind is the essential organ that controls all the other organs.

References:

1. Abu Ali ibn Sina. Donishnoma. T.,-1990;
2. Abu Ali ibn Sina. Urjuza –fit-tib. T.,-1998;
3. Koran.
4. American Psychological association (2 July 2004) “Hypnosis for the relief and control of Pain
5. Языкилитературавполикультурном пространстве. Материалы Международной научно-практической конференции (Узбекистан, г. Андижан, 25 мая 2021 г.)
6. Павлов И.П. Павловские среды. Изд. Академии наук, т. III, стр. 10.
7. <http://www.linguo-therapia.com>

Shoshiyning tibbiyot ilmiga bag‘ishlangan “qonuni bositii” asarida mavjud ayrim tibbiy atamalarning lingvistik tahlili

Xalikova Moxigul Xalimjanovna*

Teshayeva Marjona Shuhrat qizi**

10.5281/zenodo.5685880

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kun tilshunoslik tizimida tobora rivoj topib borayotgan soha lingvistikasining tibbiyot yo‘nalishidagi atamalar lingvistik tahliliga alohida e‘tibor qaratilgan. O‘rganish yetuk tabib, shoir, faqih, rassom, mohir tarjimon, lug‘atshunos va noshir sifatida faoliyat ko‘rsatgan Bositxon ibn Zohidxon Shoshiyning (1877- 1959) tib qonunlariga bag‘ishlangan “Qonuni Bositii” asarida keltirib o‘tilgan tibbiy birliklarni lingvistik jihatidan tahliliga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *soha lingvistikasi, sotsiolingvistik, ilmiy-texnik revolutsiya, terminologiya, tibbiyot lingvistikasi*

Tilimiz sofligini, uning milliy andozalarga asoslangan xususiyatini avlodlarga borligicha saqlab qolish bugungi kunning o‘ta dolzarb masalalaridan biriga aylanib bormoqda. Darhaqiqat, har bir millatning o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurti, muqaddas oilasi bo‘lgani kabi yana bir buyuk boyligi bor. Bu ham bo‘lsa uning tili. Ayni til bu- xalqni-xalq qiladigan vositadir. Uning butun ongu-tafakkurini,

* Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi,

** Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi marjonshuhratovna@gmail.com

milliylicni, urf-odat, an'analarini o'zida mujassam etgan ham bu til. U shundayin bir mo'jizaki, uni ishlatganingiz sayin sayqallanib, boyib boradigan ne'matdir.

Til haqida yozar ekan, ulug' mavlono Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida shunday degan:

Aytib sovumas taronasen sen,

Olib qurumas xizonasen sen.

Satrlar ma'nosidan shu anglashiladiki, til millatning tarixi, buguni hamda kelajagidir. Til tinglovchiga ta'sir qiladigan qudratli kuchga ega vosita sanaladi. Bugun fan-texnika rivojlangani sayin ilmiy, badiiy asarlar yoki suhbat, muloqotda qo'llangan lingvistik birliklarning mohiyatini to'g'ri anglash, badiiy-estetik vazifalarini, ularning konnotativ funksiyalarini to'liq tushunib yetishga har doim ham qodir emasmiz. Ayniqsa, zamonaviy ijtimoiy rivojlanish hamda ilmiy-texnik revolutsiya tilning sotsiolingvistik va struktur o'rganish muammolarini chuqur tahlil qilishni oldimizga asosiy e'tibor nuqtasiga aylantirmoqda [Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy. 2000.].

Tilshunosligimizning bugungi mutaxassislaridan talab qilinayotgan vazifalaridan biri sifatda biz soha lingvistikasini har tomonlama rivojlantirish, jamiyatimizda mavjud har bir tarmoq, har bir yo'nalishda mavjud lingvistik tamoyillarning bugungi kun nuqtayi nazaridan mukammallashtirilishi, undagi mavjud muammolar yechim topishida "til posbonlari" shay turishi kerak, deb o'ylaymiz. Xususan, biz so'z yuritayotgan tibbiyot lingvistikasining qadimiy "o'zbekona birliklari" mohiyati umumiy amaliyot vrachlari, farmasevtlar, tarjimonlar, tibbiyot muassasalari xodimlari hamda tibbiyot institutlari va kollejlari o'qituvchilari, talabalari uchun terminlarni o'zlashtirishda bebaho yordam ko'rsatishi shart.

Agarda aynan mana shu tizim puxta, sinchkovlik bilan o'rganib chiqilsa, soha mutaxassislari uchun ham muhim manba bo'lar edi.

Birgina bu emas, klinik terminlar va tibbiy tushunchalar bilan bir qatorda anatomiya, fiziologiya, xirurgiya, tibbiy psixologiya, psixoterapiya, stomatologiya, biokimy, farmakologiya, psixiatriya, hamshiralik ishi hamda sog'liqni saqlash muassasalari va boshqa jabhalarda keng qo'llaniladigan yangi atamalarni izlab topish, ularning lug'atlari, mobil ilovalari, elektron platformalarini yaratish ham bizning oldimizda turgan eng dolzarb masaladir.[3]

Quyida yetuk tabib, shoir, faqih, rassom, mohir tarjimon, lug'atshunos va noshir sifatida faoliyat ko'rsatgan Bositxon ibn Zohidxon Shoshiyning(1877-1959) tib qonunlariga bag'ishlangan "Qonuni Bositxiy" asarida keltirib o'tilgan ayrim tibbiy atamalarning qadimiy o'zbekona, xaqqlchil variantda qaysi o'rindosh so'zlar orqali qo'llanilgani to'g'risida misollar lingvistik tahlil qilinadi:

1. Al-fasl us-sobi fi tadbiris sibyon vash-shubbon val-mashoyix, ya'ni yettinchi faslda go'daklar, balog'atga yetganlar, **qarishga o'tib**, soch-soqoli oqara boshlaganlar va juda qarib qolgan kishilarning tadbirlari bayon qilinadi.(3-bet)

Izoh: Qarimoq, keksaymoq so'zlaridagi ma'noviy xususiyatning "qarishga o'tmoq" shaklidagi mazkur so'z birikmasida qo'llanishi kuzatilgan.

2. Bilmoq kerakki, yoshi qaytgan mo'ysafidlar va juda qari keksalarga **bo'shanish(Istifrog')** lozim bo'lsa, mumkin qadar qon olmaslik, xususan, qortiq va zuluk qo'yimaslik zarur.(4-bet)

Izoh: *Istifrog‘- organizmning bo‘shatilishi, tanani tozalash. Mazkur gapda “Bo‘shinish” so‘zi qadimgi tibbiyotda “istifrog‘ qilish” so‘zi orqali ifodalanganiga ishora mavjud. Ba‘zi bir o‘rinda, “tanqiya” atamasi orqali ham bu ma‘no anglashilgan.*

3. Hammasidan yaxshi tadbir ko‘p uxlashdir. Ularning uxlash foydalari va bu haqidagi Hakim Jolinusning so‘zlari bilan hammasi **“Uyqu va bedorlik” (tadbiri navm va yaqza)** bobida aytib o‘tildi.(4-bet)

Izoh: *Mazkur gap butunligida “Uyqu” va “Bedorlik” so‘zlarining qadimgi tibbiyot tilida “Uyqu- navm”, “Bedorlik- yaqza” tarzida qo‘llanilgani ifodalangan.*

4. Me‘dada faqat suvi yo‘q balg‘am chiqindisi xolis va tanho qolgan bo‘ladi. Demak uni so‘nggi yeyilgan yumshatuvchi narsa yo‘q qiladi va me‘dada balg‘am chiqindisidan **tanqiya(tozalanish)** hosil bo‘ladi.(5-bet)

Izoh: *Ushbu gapni o‘qish orqali biz organizmni keraksiz gaz va toksin yoki chiqindilardan tozalash qadimiy tibbiyot tilida- “tanqiya” deb yuritilganiga guvoh bo‘lamiz.*

5. Yumshoq tabiatga yumshoq narsa iste‘moli zaiflikka sabab bo‘lib, natijada **tabiiy rutubat zavol topadi** va quvvatning tushib ketishi yuz beradi.(5-bet)

Izoh: *“Tabiiy rutubat zavol topadi” kabi butunlik- salomatlikka zarar yetadi degan ma‘noda qo‘llangan, 5-bet)*

6.. Masalan, suvda qaynatib pishiriladigan xamir, qoviq oshi, guruch, barcha nordon taomlar, pomidor, **kohu(salat)**, ismaloq, kashnich va semizo‘tlardan bo‘lgan taom, bularning hammasi **balg‘am tug‘diruvchidir.(6-bet)**

Izoh: *Mazkur gapdagi “balg‘am tug‘diruvchi” so‘z birikmasi kontekstual parafraza bo‘lib, inson organizmida balg‘amning paydo bo‘lishiga suvda qaynatib pishiriladigan xamir, qoviq oshi, guruch, barcha nordon taomlar, pomidor, **kohu(salat)**, ismaloq, kashnich va semizo‘tlardan bo‘lgan taom sabab bo‘ladi, degan ma‘no mujassam.” Balg‘am tug‘diruvchi”- tasviriy ifoda bo‘lib ham hisoblanadi.*

7. Quritilgan eski go‘sh, xususan, eski ov go‘sh, mosh, karam va baqlajon kabi yemishlar va yasmiq kabilarning hammasi **savdo tug‘duruvchilar** bo‘lib, qari kishilar bulardan parhez qilishlari zarur.(6-bet)

Izoh: *“Savdo tug‘duruvchi”(tasviriy ifoda) so‘z birikmasi - kasallik qo‘zg‘atuvchilar ma‘nosini anglatadi. Mazkur birikma faqat matndagina (kontekstual) parafraza bo‘lib hisoblanadi. Ya‘ni, ushbu gapda qo‘llangan quritilgan eski go‘sh, xususan, eski ov go‘sh, mosh, karam va baqlajon kabi yemishlar va yasmiq kabilari kishi organizmiga zarar yetkazuvchi, kasallik chaqiruvchi ozuqalardir, degan mazmun anglashiladi.*

8. Bilmoq kerakki, qari odamlarning **ta‘blari (ichi)** ikki kunda bir marta kelishi tabiiy mo‘tadil hol bo‘lib, bunda yumshatuvchi narsa iste‘mol qilmaslik kerak.(9-bet)

Izoh: *Mazkur gapda qo‘llangan “ta‘bi” so‘zi “kishining ich ketishi” degan ma‘noni anglatadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu tushuncha hozirda iste‘molda kam qo‘llanilayotgan leksika bo‘lib hisoblanadi.*

9. Bilmoq kerakki, juda qari kishilar uchun **dalk, ya‘ni badanni uqalash** mo‘tadil bo‘lishi shartdir.(9 bet)

Izoh: “Dalk” so‘zining qadimgi tibbiyotda “badanni uqalash” ma‘nosi bilan teng ekalingini va shu so‘z o‘rnida qo‘llangani mazkur gapda aks etgan. Hozirgi zamonaviy tibbiyot tilida rus tilidan tilimizga o‘zlashgan “Massaj” so‘zi tarjimada – badanni uqalash ma‘nosini beradi. Massaj(arab.-qo‘l tegizmoq)-davolash usuli; tana yoki biror a‘zoga maxsus usulda ta’sir etish.

10. Yana riyozat bilan shug‘ullanish tadrijiy bo‘lishi lozim. Badaniga odatlanilmagan ko‘p riyozatni amalga oshirish mumkin emas. Bu narsalarning hammasi “**Dalk va riyozat**”(uqalash va riyozat) bobida mufassal aytib o‘tilganki, agar bu yerda tushunmovchilik bo‘lsa, o‘sha faslga murojaat qilinsin.(11 bet)

11. Bemor quvvatsiz va zaif bo‘lsa, garchi badanni **bo‘shatishga (istifrog‘ga)** hojat bo‘lsa ham, bo‘shatishga kirishilmaydi.(12- bet)

12. Har vaqt semizo‘t urug‘ining shirasidan ichsa, a‘zosida **xorish (qichish)** paydo bo‘lib, betoqat bo‘lar edi.(14-bet)

Izoh: “Xorish” so‘zi qadimgi tibbiyot tilida “qichish” ma‘nosini anglatadi. Hozirda esa bu tibbiyotning dermatologic yo‘nalishiga tegishli atama hisoblanadi.

13. Unga bir necha kun **munzij (pishiruvchi)** yedirgandan so‘ng, devpechak saqamuniyo, sano va turoutdan qo‘shma surgi dori berdim, hech biri ta’sir qilmadi.(15-bet)

14. Badanni tozalashga va to‘liq **sihat topishga** Xazrati Hakimi mutlaq(Alloh) faqat habbi tanakorni sabab qildi.(15-bet)

Izoh: Ushbu gapdagi “sihat topmoq” so‘z birikmasi “sog‘aymoq” ma‘nosida qo‘llanilyapti, 15-bet)

Sihat topmoq- qo‘shma fe‘l.

Sinonimik qator: sog‘aymoq(bosh, dominant so‘z), sihat topmoq, tuzalmoq, o‘z holiga kelmoq.

15. Qon chiqarishga mumkin qadar jur‘at qilinmasligi lozim. Agar chiqarish zarur bo‘lsa, bu yerda qortiqdan ko‘ra **fasd afzal, ya’ni tomirdan qon olish** afzal.(16-bet)

Izoh: Mazkur gapda qo‘llangan arxaik “fasd” so‘zi orqali – organizmdagi tomirlardan qon olish ma‘nosi anglashilgan. Demak, tibbiyotning gemotologik yo‘nalishiga tegishli “qon olish” birikmasi qadimgi tibbiyot tilida “fasd” sozi orqali qo‘llangan.

16. Masalan, issiq shish kasalligining chiqayotgan payti faqat qaytaruvchi davoning vaqti bo‘lib, **zimod (bog‘lanuvchi) dori** ishlatiladi. Oxirida esa, faqat tarqatuvchi davoni ishlatish kerakki, **unga qaytaruvchi(radi) dori** zarar qiladi.(18-bet)

Hozirda iste’molda bo‘lmagan tibbiy atama: “zimod dori”, “qaytaruvchi dori”

17. Shuningdek, **issiq kasallikning** chiqishi boshida moddani biroz yumshatadigan davo ishlatishning vaqtidir.(isitma kasalligi boshqa nim bilan atalgan, 18-bet)

Izoh: Inson organizmida yuz beradigan isitma jarayoni- “issiq kasallik” tarzida qo‘llanilgan. Isitma- bu odam va issiq qonli hayvonlar organizmining qo‘zg‘atuvchi omillar (xususan, mikroblar) ga nisbatan maxsus reaksiyasi. Tibbiyot lingvistikasida bu jarayon “Gavda temperaturasi”, “Isitma” tarzida

qo'llaniladi. "Issiq kasallik" esa qadimgi tibbiy atama bo'lib hisoblanadi va u hozir tilimiz iste'molida emas.

18. Chunonchi, "**Tashrihi murakkaba**"(murakkab a'zolar tashrihi) bobida aytilniki, barha a'zolarning mizoji bir-biridan farq qiladi.(20- bet)

Hozirda iste'molda bo'lmagan hamda ma'nosi saqlanib qolinmagan atama(istorizm) – "Tashrihi murakkaba"

19. Chunki, **o'ngach o'zi yeyiladigan va ichiladigan narsaning o'tish yo'lidirki**, unga ichiladigan davo bir onda yetadi.(o'ngachga berilgan ta'rif tasviriy ifoda sifatida qaraladi, 2- bet)

Izoh: *Tasviriy ifoda: O'ngach- "o'zi yeyiladigan va ichiladigan narsaning o'tish yo'li"*

20. Shuningdek, **usr ul-bal kasalligining turk istilohida qiltomoq deyiladi** va ungacha yuz bergan **falajlikdan** iboratdir.(21-bet)

Izoh: *"Qiltomoq" kasalligi- tomoqdagi noqulaylik, ovqatni chaynash va yutish paytidagi qiyinchilikdan boshlanadi. Bu atama hozirgi davr tibbiyot ilmidagi ham ishlatiladi. Uning sinonimi tarzida "Qizilo'ngach o'smasi" birikmasi qo'llaniladi.*

Asarda keltirilgan lug'atdagi tibbiyotga oid ayrim misollar(izohi bilan)

- **Anzirati go'shtxo'r- anzarut- xalq orasida u anzirati go'shtxo'r va go'sht baror(ortiqcha go'shtni yeydigan va yangi go'sht o'stiradigan yelim) ham deyiladi.- kamed astragala- Astragalla Sarcolla Dun**
- **Za'faron- shafran**
- **Novshadil- nushodir- Ammonium chioratum.**
- **Sabal- ko'z pardasining qizarishi.**
- **Sofin tomuri- oyoq osti teri vannasi- Vena sophe mogna.**
- **Shiyof yoki shof- shamcha yoki pilta dorilar [2].**

Demak, jamiyat lingvistik hayotiga ilmiy-texnik revolutsiyasi ta'sirining xarakteri, tempi, ko'lami, sohalari va xususiylikni aniqlash sotsiolingvistikaning eng dolzarb vazifasidir. Biz yuqorida ko'rib chiqqan tibbiyot lingvistikasiga oid atamalar misoli ayni shu tilshunoslik masalasiga bag'ishlanadi. Har bir soha bo'yicha lug'atchilik lingvistik asosda taraqqiy etishi lozim. Soha lingvistikasidagi har bir yo'nalish terminologiyasining ilmiy, ommabop variantlari xalqqa tushunarli bo'lib, asosli farqlansagina, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyatli.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5850-сон Фармони.
2. Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy. Qonuni Bosutiy.- T., 2000.
3. Azimjon Qosimov. Tibbiy terminlar izohli lug'ati.- T., 2003.
4. Baskakov N.A va b. Umumiy tilshunoslik.-Toshkent, 1979.
5. Abuzalova M. /<https://www.psychosocial.com/article-category/issue-3-volume-24/>

Davriy nashrlarda tibbiyotga oid tasviriy vositalarning qo'llanilishi

МУНДАРИЖА

Rasmiy ochilish. Tabriklar		
<i>Hamidov O.H.</i>	<i>Rasmiy ochilish</i>	6
<i>Inoyatov A.Sh.</i>	<i>Tibbiyot va til mushtarakligi</i>	8
<i>Daminov M.I.</i>	<i>Til va madaniyat</i>	9
<i>Qahhorov O.S.</i>	<i>Davlat tili - millatning tirik nafasi</i>	10
<i>Xuseynova A.A.</i>	<i>Soha lingvistikasini rivojlantirish – davr talabi</i>	11
<i>Aslonova E.S.</i>	<i>Государственный язык – неотъемлемая часть духовной национальной культуры государства</i>	12
Yalpi majlis ma’ruzalari		
<i>Mengliyev B.R.</i>	<i>Tilshunoslik samara bersin.</i>	15
<i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Lingvistika va tibbiyot hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida</i>	17
<i>Чудакова В.П.</i>	<i>Психология пациента и этика врача</i>	22
<i>Ixtiyarova G.A.</i>	<i>Ginekologik kasallikni ifodalovchi tibbiy terminlar talqini</i>	25
<i>Мўратбек В.Қ.</i>	<i>Professor Q.Jўbanov уеңбектериндеги сөзтаңым негиздері (Q.Jўbanov сөзтаңымындаг ы лексикология мәселелері)</i>	27
<i>Adilova S.A.</i>	<i>Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQSHdagi ayrim universitetlar misolida)</i>	36
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>O'zbek tilini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar</i>	40
1-sho'ba. Tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari		
<i>Ahmedov B.Y.</i>	<i>Rus va o'zbek tillarida so'zlarning o'zaro tobe bog'lanishi: boshqaruv kategoriyasi</i>	42
<i>Akhmedov A.R. Po'latova S.M.</i>	<i>O'zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish</i>	46
<i>Adizova N.I.</i>	<i>Leksik birliklarning milliy o'zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)</i>	50
<i>Elova D.Q.</i>	<i>O'zbek tili milliy korpusi uchun so'zlashuv uslubiga xos so'zlarni teglash masalasig oid</i>	55
<i>Fayazova D.S.</i>	<i>Methodological approach in teaching process</i>	61
<i>Fayazova D.S. Shirinboyeva B.M.</i>	<i>Empowering languageskills through modern methods</i>	65
<i>Jo'rayeva D.R. Qo'shayeva N.E.</i>	<i>O'quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari</i>	68
<i>Kurbonov A.M.</i>	<i>Tasks of effective use of the uzbek language</i>	71
<i>Mengliyev B.R. Hamroyeva Sh.M. Elova D.Q.</i>	<i>Qirg'iz va yoqut tili avtomatik morfoligik tahlil vositalari tajribasidan</i>	75
<i>Muxtorov E.M.</i>	<i>Vrach kasbiy mahorati tuzilmasida kommunikativ kompetentlikning o'rni</i>	79
<i>Мўратбек Б.Қ. Саламат Э.С.</i>	<i>Этнолингвистика – этностық болмысты ұлттық тіл арқылы таңым білу(Аймақтық лексика негизінде). Ethnolinguistics- knowledge of ethnic identity through the national language (based on regional vocabulary).</i>	84
<i>Orifjonova F. Orifjonova M.</i>	<i>Critically discussing student teachers' ideas</i>	88

<i>Ortiqova G. H.</i>	<i>Harakat tarzi shakllari va nutq</i>	93
<i>Saduaqas N.A.</i> <i>Ibragimov T.A.</i>	<i>Qazaq tilindegi dybyys saykestigi turaly</i>	97
<i>Sayfullayeva R.R.</i> <i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Til – millat ma'naviyati va madaniyati takomilining bosh masalasi</i>	102
<i>Tosheva D.A.</i>	<i>The use of examples of folklore in the description of the person</i>	104
<i>To'yeva Z.N.</i>	<i>Bayon – o'quvchining yozma nutqini tartibga solish vositasi</i>	111
<i>Salomova M.Z.</i>	<i>The role of teaching speaking through technology</i>	116
<i>Shoimqulova M.Sh.</i>	<i>The integration of technology into language teaching</i>	121
<i>Sharipova F. N.</i>	<i>Integrating technology in teaching listening skills</i>	125
2-sho'ba. O'zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida		
<i>Nazarova S. A.</i>	<i>So'z birikmasi – tibbiy atamalar “bunyodkori”</i>	131
<i>Nazarova D.G.</i>	<i>Lexicographic problems of the uzbek language</i>	136
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>Tibbiy birliklarning elektron lug'atlari xususida</i>	139
<i>Sobirova D.R.</i>	<i>Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili</i>	141
<i>Toirov G.I.</i>	<i>Shifokor nutqining lingvistik xususiyatlari</i>	146
<i>To'rayeva Sh.</i>	<i>So'z birikmasi tibbiy terminlar tizimida</i>	150
<i>Xamidova G.Y.</i>	<i>Особенности преподавания медицинской терминологии на уроках русского языка как иностранного</i>	153
<i>Xo'jayeva M. Y.</i>	<i>Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining tibbiyotda qo'llanilishi</i>	157
<i>Yokubova Sh. Y.</i>	<i>Tibbiy matnlarda obyektli birikmalarning voqelanishi</i>	161
<i>Yuldasheva D.N.</i> <i>Chullieva G.T.</i>	<i>Тонина и тон звука как медицинский эфемизм</i>	164
<i>Navro'zova M.G'.</i>	<i>Tibbiy birliklar tadqiqi</i>	172
3-sho'ba. Tibbiyot ta'limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi		
<i>Ahmadova U.Sh.</i> <i>Bozorova G.Z.</i> <i>Mirjonov N.N.</i>	<i>Tibbiyot sohasida perifrazarlar</i>	174
<i>Абдуллина А.Б.</i>	<i>Мұқағали Мақатаев әңгімелеріндегі психологизм</i> <i>Psychologism in the stories of mukagali Makatayev</i>	179
<i>Adizova Nigora</i> <i>Adizova Nodira</i>	<i>Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari</i>	182
<i>Gafurova N.T.</i> <i>Hikmatov N.I.</i>	<i>Значение языка в развитии высшего образования</i>	185
<i>G'aybullayeva N.I.</i>	<i>Tibbiy lingvistik birliklar platformasining amaliy ahamiyati</i>	190
<i>Hayitov Sh.A.</i>	<i>Alisher Navoiy tib ilmi va tabiqlar haqida</i>	195
<i>Haydarova N.A.</i>	<i>The importance of metaphors usage in medical discourse</i>	200
<i>Jumayeva M.</i>	<i>O'zbek xalq maqollarida tibbiy birliklarning qo'llanilishi</i>	204
<i>Kobilova F.T.</i>	<i>The problems of research on methods of foreign filology teaching with innovative approach</i>	207
<i>Raximov M. M.</i>	<i>Linguotherapy as the method of treatment</i>	211
<i>Xalikova M.X.</i> <i>Teshayeva M.Sh.</i>	<i>Shoshiyning tibbiyot ilmiga bag'ishlangan “qonuni bositiy” asarida mavjud ayrim tibbiy atamalarning lingvistik tahlili</i>	214
<i>Niyozova M.F.</i>	<i>Davriy nashrlarda tibbiyotga oid tasviriy vositalarning</i>	218

	<i>qo'llanilishi</i>	
4-sho'ba. Tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi		
Yusupova D.Y.	<i>Tilshunoslikda evfemizm hodisasi talqini (H.Xudoyberdiyeva she'rlari asosida)</i>	222
Қалиев Е.М.	<i>«Ант» драмалық дастанының тарихи және фольклорлық негізі Historical and folklore basis of the dramatic saga "The Oath"</i>	228
Yuldasheva M.M.	<i>Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirish</i>	232
5-sho'ba. Amaliy filologiyani rivojlantirish - davr talabi		
Ashurbayeva R.Q.	<i>Yosh avlodda tibbiy madaniyatni rivojlantirishda ona tili fanining ahamiyati</i>	237
Istamova S. I.	<i>Taqlid so'zlarning tibbiyotda qo'llanilishi</i>	241
Qobilova A.B.	<i>O'zbek va ingliz tili tibbiy perifrazalarining kognitiv-morfologik xususiyatlari</i>	245
Toshtemirova S.	<i>Tibbiyot lingvistikasi: vujudga kelishi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari</i>	248